

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 6 (66287)
2001 yil 9 fevral, juma

Sotuvda erkin narhda

BOLALAR KOMPANIYASI

YAqinda Buxoro viloyatidagi 16-maktabda ana shu nomdagi guruh tuzildi. Maktab o'quvchilari amerikalik ko'ngillilar yordamida tikuv mashinalari sotib olishdi. Xon atlasdan bo'yinbog'lar tikib, qadoqlab sotishdi. Buni qarangi, bolalarning tikkan mahsulotlari juda xaridorgir chiqib qoldi. Buning sababi ular o'z mahsulotlarini yaxshi reklama qila olganlarida bo'libdi. Bu ibratli ish Toshkent viloyati "O'qituvchilar malakasini oshirish" instituti tashabbusi bilan o'tkazilgan iqtisod fani o'qituvchilari uch kunlik seminarining amaliy natijasi edi. Seminarda so'zga chiqqan Toshkent texnika universiteti dotsenti YOqubjon Ortiqov, "Yoshlar yutuqlari" nodavlat tashkilotining direktori Bahodir Samadov, hamda chet ellik ishbiarmonlar bolalarning faolliklarini oshirish, iqtisodiy bilimlarini boyitish haqida gapirdilar.

Mazkur seminar barchamizni AQSH iqtisodiy tizimini o'rgana borib, avvalo o'z ildizlarimizga qaytishga, buyuklarimizning iqtisodiy qarashlarini chuqur o'rganishga, sharq bilan g'arbni omuxtalashtirib, bolalarga yangi -yangi fikr va bilimlar berishga, mustaqil fikrlashga undadi.

Abdusamat YUNUSOV,
Zangiota tumanidagi 22-maktab
o'qituvchisi.

Keksa pedagog sifatida bu ko'rsatuvni zo'r qiziqish bilan tomosha qildim. Yurtboshimiz barchamizning dilimizdagi gaplarimizni gapirdilar. Aslida mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar bor. Shunday ekan, siz o'quvchilar ham faol yashashingiz, maktabga shunchaki vaqt o'tkazish uchungina kelib ketavermay, puxta bilim olishingiz, har biringiz amalga oshirgan ibratli ishlaringiz bilan o'z nomingiz, o'z o'rningizga ega bo'lishingiz lozim.

Bizning o'quvchilik davrimizda bunday imkoniyatlar, shart-sharoitlar

bo'lmagan. Sizlarga juda havasim keladi. Zamonaviy tipdagi maktablarda, kompyuteri monitoring xonalarida saboq olyapsizlar.

YAqinda Toshkent tumanidagi V.Karimov nomli 1-maktabda ham monitoring xonasi tashkil qilindi. Bu xonada "XXI asrda bilimlar sari" shiori ostida ish olib borilmoqda. O'quvchilarning reyting asosidagi ballari bo'yicha ma'lumotlar,

Aziz bolajonlar, xabaringiz bor shu yil 24 yanvar kuni Toshkentda Prezident Islom Karimovning „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda yurtboshimiz nutq so'zlab, yoshlar masalasi davlat siyosatining markazida turganligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Ko'plab tengdoshlaringiz, ustozlaringiz mazkur uchrashuvga nisbatan o'z munosabatlarini, fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar

YAGONA BIR TASHKILOT BO'LSA...

Men Chirchiq shahridagi sanoat texnikumida tahsil olaman. Hozirgi kunda respublikamizning ko'pgina maktablarida o'z nomiga, ramziga, hatto, o'z galstugiga ega bo'lgan turli tashkilotlar tuzilayotganidan xabarimiz bor. Respublikamizdagi barcha o'quvchilar yagona bir tashkilotga a'zo bo'lsalar bo'lmasmikin-a? deya o'ylanib yurardim. Yurtboshimizning 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni yagona-Bolalar tashkilotiga birlashtirish haqidagi takliflari bizga ham juda ma'qul bo'ldi. Maktablarda tahsil olayotgan uka va singillarimizning tashkilotlari ham, maqsad va maslaklari ham yagona bo'lsa, qanday yaxshi!

Erkin TOJIBOYEV,
Chirchiq shahri.

ХАР БОЛА ФАОЛ БЎЛСИН

o'tkaziladigan seminarlar jadvali, metod birlashmalarining tadbirlari, olimpiada ko'rsatgichlari, davlatimiz

o'quvchilar hayotiga oid turli yangiliklar yozib qo'yilgan. Maktab rahbari Asqar Dutboyev boshchiligida maktab hayotida qator o'zgarishlar yuz bermoqda. Sport va fan to'garaklarining faoliyati jonlantirib yuborilgan. Turli xomiy va sahovatpesha kishilar ko'magida maktabga zarur ashyolar keltirilyapti. Bunday mehribonchiliklarga javoban o'quvchilar ham bilim va faolliklari bilan javob berishadi, deb o'ylayman.

Rixsiboy TILLAYEV,
Xalq ta'limi a'lochisi.

O'Z BOBOMIZ — NAVOIY

Buyuk mutafakkir, shoir, davlat va jamoat arbobi A.Navoiy tavalludining 560 yilligi munosabati bilan nurxonamiz — kutubxonamizda kutubxonachi Rohila opa Shokirova boshchiligida "El desa Navoiyni" nomli kitobga bag'ishlangan kitobxonlar konferensiyasi o'tkazdik. Shuningdek, "Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilimdoni" mavzusida insholar ko'rik-tanlovi ham bo'ldi. Tanlovda 6-sinf o'quvchilari g'olib deb topildilar.

Boshlang'ich sinflarda esa "Mening Navoiy bobom" mavzusida she'rxonlik kechasi o'tkazildi. Kechani boshqarib borgan Diloram opa I z b o s a r o v a navbatma-navbat kichkintoylarni davraga chorladi, ular esa Navoiyning she'r va g'azallarini ifodali qilib o'qib berdilar. Navoiy bobomizga har kun, har dam murojaat qilishimizning boisi — Navoiy o'z bobomiz-da!



Oqila SUBHONOVA,
Dildora SAFAROVA,
Buxoro viloyati,
Shofirkon tumanidagi
48-maktabning o'quvchilari.

ВАЪДАГА ВАФО КЕРАК

Утган йилнинг 23 ноябрь, 47-сонида "Кўнғирок" руқни остида "Хар синф-га ўнтадан "Тонг юлдузи" номли мақола чоп этилган эди. Унда Навоий вилояти халқ таълими бошқармаси бошлиғи Эргашев Курбонали Жўраевич билан обуна масаласи юзасидан телефон орқали боғланган эдик. Бошқарма бошлиғи "2001 йилда навоийлик ўқувчилардан ҳар бир синф ўнтадан "Тонг юлдузи" газетасига обуна бўлади," — дегандилар.

Бироқ, ундай бўлмади. 375 та мактаб ва 190 мингдан зиёд ўқувчиси бўлган Навоий вилоятдан атиги 1536 нафар ўқувчи январь ойи учун "Тонг юлдузи" газетасига обуна бўлибди. Агар кич ойма-ой камайиб бориши жиддий эътибор бўлмаса, бу кўрсатбарчамизга аён.

Шу мақсадда бошқарма бошлиғи билан яна те- харакат қилдик. Шу мақсадда бошқарма бошлиғи билан яна те- телефон орқали боғланишга таътилдалар,— де- — Курбонали Жўраевич бошқарма бошлиғи Ёкубов фикримизни дилар вилоят халқ таълими бошлиғи қандай муовини Халил бошқарма бошлиғи қандай тушуниб. — Бошқарма бошлиғи қандай ваъда берганларидан бошқарма бошлиғи қандай лага эса кўзим тушма- хабарим йўқ. Мақо- масаласига доимо жиддий қараб келганмиз. Қўлимиздан келганча ҳаракат қила- ган-да. Аммо обуна ятмиз...

Мен бошқарма бошлиғи муовинидан ўқувчиларнинг "Тонг юлдузи" газетасини болалар билан ишлайдиган катталар ҳам ўқишлари керакми, деб сўраганимда, "Албатта, мактаб ўқитувчиларидан тортиб, ота-оналар ҳам ўқишлари лозим", — дедилар ва жуда тўғри айтдилар.

Аммо "Газетанинг ўша сонини кўрмаганман, ўқимаганман," деган гапларига нима дейиш мумкин? Қолаверса, мамлакат сиёсати, тинчликпарвар гоёсини тарғиб қилаётган газета ўз эгалари қўлига етиб бормаса, ўқувчи нима қилар экан-а?

Наманган вилояти Халқ таълими бошқармаси бошлиғи Дилшоода Дадажоннова ҳам ваъда берганлар: (2000 йил, 5 октябрь, 40-сон)

"2000 йил учун қайси газета-журнал таҳририяти обуна билан мурожаат қилса, ўшанга куч бердик. Бироқ болаларнинг "Тонг юлдузи" газетаси биров четда қолди. 2001 йил обунасида эса бу иш такрорланмайди", — деб...

Наманганлик ўқувчилар январь ойи учун 8037 донга "Тонг юлдузи"га обуна бўлибди. Бу кўрсаткич бошқа вилоятларга нисбатан ёмон эмас. Аммо йил охирида обуначилар сони 380 нафарга тушиб қолаяпти.

— Айни кунларда ҳам обуна давом этаяпти. — деди бошқарма муовини Тоҳиржон Раҳматов. Йил охиригача обуначилар сони ошса ошадими, камаймайди.

Нима ҳам дердик. Бу гапга ҳам ишониб тураемиз.

Феруза ОДИЛОВА

52 YOSHLI KITOB

Iya, kitobning ham yoshi bo'larkanda, deb hayron bo'layotgandirsiz? Ha, bo'ladi. Shaxsiy kutubxonamdagi kitoblarning eng yoshi kattasi - Alisher Navoiy bobomizning 500 yilligi munosabati bilan 1949 yilda Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan "Navoiy" kitobi ekan. Shu kunlarda Alisher Navoiy bobomizning 560 yilligini keng tantana qilyapmiz.

Bolajonlar, siz „Xamsa“ dostonini o'qigansiz, undagi g'azallarni yod olgansiz. Lekin Navoiy bobomizning bebaho durdonalari bizgacha qay tarzda yetib kelganini bilasizlarmi? Bobomiz asarlari qaysi xattotlar tomonidan ko'chirilganini-chi? Navoiy bobomizning asarlari o'z davrining mashhur xushxat kotiblaridan biri Sultonali Mashxadiy tomonidan ko'chirilgan. Yana biri unchalik mashhur bo'lmagan xattot Abdujamil kotibdir. U kishining juda xushxat va nafis did egasi bo'lganligini ham mana shu kitoblar orqali bilib olamiz. Eng muhimi, bobomizdan meros bebaho durdonalarimiz o'zimizda saqlanmoqda.

Ma'mura MADRAHIMOVA

ABITURIYENT XATI

Men sizlar bilan oldimdagi buyuk maqsadim haqida o'rtoqlashmoqchiman. O'zim abituriyentman. Bu yil nasib qilsa, tanlagan kasbim — o'qituvchi bo'lish uchun oliygohga kiraman. Hozirda talabalar safiga qo'shilish uchun bor kuchim bilan tayyorgarlik ko'ryapman. Tinmay o'qib, axborotnomalardagi test savollarni yechyapman.


Aslida o'zim ham she'rlar mashq qilib turaman. Shuning uchun ham „Tong yulduzi“ni o'quvchilik chog'imdand o'qib boraman. Ayniqsa, tengdoshlarim ijodi meni hayratlantiradi. She'riyat girdobiga meni ham tortadi. Qalbidagi o'tli iztiroblarni satrlarga solgim keladi. Sizga bir she'rimni yozib yuborgim keldi. Unda o'z niyatim ifodalangan.

SHOIR XALQI

Nega shoir xalqin devona derlar, Yurakdan kuylasa to'lib toshiqib. Mo'jaz bir qalbiga sig'may bu olam, She'ning dunyosiga ketsa oshiqib.

Ularning qalbida poklik hukmron, Shoirga ilhomni beradi egam. Dunyoda yaxshilar to'lib toshardi, Devona bo'lolsa qani har odam.

Vasila YUNUSOVA, Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi Avazboy qishlog'i



Bugun osmon musaffo. Yozda bu yerda hayot o'zgacha qaynaydi. Osmondagi hujumchi qushlar uchun suvning yorqin yuzi okean hayotidan so'zlovchi oynai jahon. Sirtidan ko'ringan bu go'zallik siyratda umuman o'zgacha. Okean suv osti g'orlarini bezovchi mo'jiza nimpushti marjon bugun qirolni qiziqirtmay qo'ydi. Mana, marjonning oldiga yaqinlashayotgan shoxdor uzolmaydi. Yonidagi jufti haloli besaranjomlanib, turtib qo'ydi. Buni qotirgan bo'ldi. Noqulay Qatra vaziyatga tushgan oshiq, o'zini oqlagan bo'lib dumini likillatganicha g'or ichkarisiga ravona bo'ldi. Rafiq ham ancha-muncha xafa: marjon atrofida aylana-aylana u ham yo'lini ayri burdi. Ha, bugun qirolning avzoyi buzuq: buni uning keskin va doira shaklidagi asabiy burilishlaridan bilsa bo'ladi. Chunki o'zga bir kelginfdi nahang qasrini egallab oldi-da. Bunga qasr soqchisi yedfuzagina guvoh. Yangi sohib unga yoqib tushdi shekilli, bamaylixotir mayda molyuskalar yeyish bilan ovora. G'or atrofida anchagina sang'igach, o'z hukmini boshqa yerda o'tkazish ilinjida ketdi.

ЯШАШ ҚОНУНИ

baliq ko'zini undan buni sezdi shekilli, bevafo yorining biqinini ko'rib, malika ensasini



Gulgun SULTONOVA, o'quvchi.

Bolalik! Umr kitobining eng yorug' to'ldiradi. Qani aytingchi, kim bu bobi, beg'ubor fasli, o'zi hukmron faslning beg'ubor damlarini goh bo'lgan podsholigi haqida so'z xo'rsinib, goh quvonib eslamaydi? Kim yuritmoqchiman. Bolalik! Bu so'zni bu faslda umrbod qolishni istamaydi? Bu eshitishim bilan ko'z o'ngimda bolaligim kechgan qishloq, uyimizga eltuvchi yo'lak, zabardast tog'lar g a v d a l a n a d i . Quloqlarimga esa shirin o'jarliklar, shirin yig'ilar, to'y sadolari eshitilaveradi. Bu saltanat ramzi beg'uborlik, malikasi esa quvonch. Soqchilari g'arazgo'ylik uchungina darvozalarini bekitadilar. Saltanat karvonimizni soddalik, beg'uborlik, samimiylik bilan

БОЛАЛИК



kishi karvonini mashaqqat, qayg'u, kelajak o'ylari egallaydi.

Men bolalikni tongga o'xshataman. Chunki tong bolalik kabi g'uborsiz. Ilohim, umrimiz tongi bo'lmish bolalikni g'ubor qoplmasin.

Oynisa ESHMURODOVA, Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 59-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Bir maktabdan ikki maktub

Tahririyatdan:

Ona mehri, muhabbati haqida so'z ketganda, ko'z oldimda o'zimning munis va mehribon onajonim gavdalanadilar. Go'daklik chog'imd aytgan shirin allalari, biror narsadan xafa bo'lib, yig'laganimda, meni ovutib aytgan hazil qo'shiqlarini eslayman. Oilada kenjasi bo'lganim sababli, meni har vaqt ko'nglimga qarab birovga xafa qildirmasliklari, biror ishni xato bajarib qo'ysam, kuyib-pishib yana qaytadan tushuntirishlarini aytmayisizmi? Har bir inson, o'z onasini „Dunyodagi eng chiroyli ayol“ deb biladi. Shu o'rinda bir hikoya yodingizga tushdi. „Bir sinfda rasm o'qituvchisi o'quvchilarga o'z onalarining rasmlarini chizishni topshirdi. O'quvchilar xursandlik bilan ishga kirishibdi. Lekin bir o'quvchi hech narsa chizmay o'ylanib o'tirar edi. O'qituvchi undan nega chizmayotganligini so'radi. Bola esa uning onasi dunyodagi eng go'zal va chiroyli ayol ekanligini, uning suratini chizish o'zining qo'lidan kelmasligini aytdi“.

Ona mehri haqida yana nima deyish mumkin? Onaning yuksak mehri uning biz uchun tikkan kiyimlarida, pishirgan shirin ovqatu nonlarida, oq yuvib t a r a l g a n kiyimlarida o'z aksini topadi.

ОНА МЕХРИ

Meni butun dunyodagi ayollarga, shu jumladan, o'z onajonimga qarata shunday degim keldi: „Onajon, mening bu yorug' dunyodagi eng yaqin sirdoshim, do'stim, aziz onajonim! Bugun sizni tug'ilgan kuningiz. Sizni chin qalbidan tabriklayman. Hamisha baxtimizga sog' bo'ling, umringiz uzun, hayotingiz sermazzun bo'lsin. Aka-opalarimning va mening porloq kelajagimizni ko'rib yashang.“

Har doim guldek ochilib, nurdek sochilib yuring. Siz sog' bo'lsangiz dunyo tinch, hayotimiz totuv bo'ladi. Men sizni hech qachon xafa qilmayman, chunki men sizni juda qattiq yaxshi ko'raman!!!“.

Dilobar RASULOVA, 274-maktabning 8-"A" sinf o'quvchisi

Qadrli «Tong yulduzi»!

Maktubni yozishdan maqsadim do'st tanlashda adashganlarni to'g'ri yo'lga solishdir. Mahallamizda Dildora ismli bir qiz bor. U do'stni pul yoki bo'lmasa chiroyli kiyim bilan tanlaydi. Qanday qilib deysizmi? Agar bir qizning qo'lida ko'proq pul ko'rsa, Dildora darrov o'shaning do'sti bo'lib oladi. Qani endi, o'sha qiz bilan bir umrga sirdosh, dugona, ajralmas do'st bo'lib yursa. Aksincha, u qizning puli tugaguncha do'st bo'lib yuradi.

P u l i tugagach, boshqa do'st izlashga kirishadi. Bir o'ylab ko'ring-a, hech qachon do'stni kiyim, pul bilan tanlab bo'ladimi? Agar do'stingiz sizga sodiq, yaxshi va yomon kuningizda doim siz bilan birga bo'lsa, shuning o'zi katta baxt emasi? Siz hech qachon do'st tanlashda xatoga yo'l qo'ymang. Agar siz ham bu yo'lga kirgan bo'lsangiz bu yo'ldan qayting. Afuski, bu xislat Dildorani aslo tark etmayapti. Unga qanday maslahat berasiz?

Zamira NOSIROVA, 9-"B" sinf o'quvchisi

Zamira qizim. Kuyunchakligingiz, Dildoraning do'st tanlashdagi „yo'li“dan xafaligingiz bizga ma'qul tushdi. Haqiqatdan kishining do'sti bitta bo'lsa-da, y a x s h i - y o m o n kuniga yarasa, shuning o'zi baxt. Biz, kattalar orasida mansab, obro'siga qarab do'st tutinadilar, mansabidan tushgan do'stni hamma unutilib qo'yishini S.Ahmadning „Qoplon“ hikoyasidan bilardik. Yodingizda bo'lsa, it sobiq egasini taniydiyu, ammo m a n s a b d a n tushgan so-biq xo'jayinni o'z xizmatchisi „tanimaydi“. Dildoraga maslahatimiz, biz inson-miz, do'st tanlashda adashmasligimiz kerak.



Aziz bolajonlar, tengdoshingiz Diyorjon Mahkamovni tanisiz-a? U yoqimli ovozi, sermazmun qo'shiqlari, qiziqarli kliplari bilan mehringizni qozonayotgan bo'lsa kerak-a! Diyorjon bilan yaqinroq tanishish maqsadida u bilan suhbatlashdik:

-Diyorbek, yaxshigina qo'shiqchi bo'lib tanilib qoldingiz. San'at olamiga qanday kirib kelganingiz haqida gapirib bering.

-Bir kuni oyim buyurib ketgan yumushlarni qo'shiq hirgoyi qilib yurib bajarayotgandim. Sevimli xonandamiz Shuhrat aka Qayumov bilan onam qo'shiqlarimga quloq solib, meni kuzatib turishganini sezmay qolibman. O'shanda rosa uyalib ketgandim. Shuhrat aka yelkamdan quchib:

„Bino yidek ovozing bor ekan.

Diyorjon Mahkamov 1987 yilda tumanining Xonobod hududidagi a'lo baholarga o'qib kelyapti. Malikaxonlarning mehribon do'stlarining (ular juda ko'p) hayvonot olamiga qiziqadi. shug'ullanadi. Bo'sh vaqti mashg'ulotlariga fursat topadi.

„Shogird tushmaysanmi?“ deb so'rab qoldilar. O'zim jon deb rozi bo'ldim. Biroq oyim bilan dadam darslariga qiynalib qolmasmikini, deya ikkilanishgandi.

-Hammasiga ulgurayapsizmi, ishqilib?

-Harakat qilyapman. Konsertlar, s'yomkalar tufayli qoldirgan dars soatlarimni o'zim mustaqil o'qib, yetkazib olaman. Ustozlarim, do'stlarim ham qarab turishmaydi, yordam berishadi.

-Sizni „Diyorjon“ qilib muxlislarimga tanitgan

- Bunga men qishki ta'til kunlarida yana bir bor amin bo'ldim. Chorakni a'lo baholarga yakunlaganim uchun dadam meni Toshkentga olib keldilar. Mustaqillik maydonini, Xalqlar do'stligi maydonini tomosha qildim. Sirkdagi yangi yil tantanalarida qatnashdim.

Shahar ko'chalarida yuribmanu

sevinchim ichimga sig'may ketyapti. Keng va ravon ko'chalar, biri-biridan chiroyli osmono'par binolar. Tezroq uyimga borsamu ko'rganlarimni dugonalarimga so'zlab bersam deyman. Dadamga qolsa, meni kechgacha aylantirgilar, turli xil atraksionlarda uchirgilar bor edi. Lekin men ularni o'z gazetamiz muharririyatiga yetakladim. Anchadan buyon yozib yurgan she'rlarim bor edi. Shularni sizlarga ko'rsatgim keldi, — deb so'z boshladi Shahlo salomalikdan so'ng.

-Juda yaxshi-da. Gapingiz mazmunidan o'qishlaringiz a'lo ekanligini bilib oldim. Yana nimalarga qiziqishingiz, sevimli mashg'ulotingiz haqida ham gapirib bering.

-Yana raqsga tushishni juda yaxshi ko'raman. Biror to'garakka qatnab,

„Kutaman“ qo'shig'ingiz haqida gapirib bering.

-Yetim bolalar nomidan aytilgan bu qo'shig'imda ularning ichki kechinmalarini, mitti yuraklaridagi so'ngsiz iztiroblarini, o'kinchlarini, iltijoli boqishlarini hamma-hammasini ko'rsatib berishim kerak edi. Klipda bu manzaralar qanday chiqqan, muxlislarimizga qanday ta'sir qilganini bilmaymanu ammo har gal shu qo'shig'imni kuylaganimda, qiynalib ketaman, qandaydir tushkun kayfiyatga tushib qolaman.

-Orzu va rejalaringiz haqida ham bilishni istardik.

-Ular juda ko'p.

Avvalo meni ardoqlab,

Toshkent shahrida tug'ilgan. 25-o'rta maktabning 7-sinfida yaxshi Oilaning to'ng'ich farzandi. Elyorjon va Ota-onasini juda yaxshi ko'radi, Sportning tennis turi bilan kamrog'u lekin kompyuter va Sevimli ta'imi - chuchvara.

parvarishlayotgan ota-onamga, qolaversa, mustaqil O'zbekistonimizga munosib farzand bo'lishni orzulaيمان. Yana, marhuma buvijonim Shokira Mahkamovaning qo'shiq qilib aytilmagan she'rlarini kuyga solib, qo'shiq qilsam deyman. Chunki, buvim she'rlarini qo'shiq bo'lishini juda-juda istagan, lekin afsuski hayotliklarida hech bir she'rlari qo'shiq bo'lmagan ekan. Ularning armonlarini qondirsam deyman.

-Ilk bor sahnaga chiqqaningizda qanday holatga

istayman. Chunki ukalarimga o'qib berish uchun yangi-yangi ertaklar kerak.

-Raqsga tushishni yaxshi ko'raman dedingiz, kelgusida raqqosa bo'lishni orzu qilsangiz kerak-a?

-Yo'q, katta bo'lsam shoira bo'lmoqchiman. Bolalarga bag'ishlangan she'rlar yozsam deyman.

Keling, bitta she'rinni o'qib beray:

DEHQON BOBOM

Mening dehqon bobom bor, Ishi puxta bobom bor.

Bildim, ular tufayli, G'allaga to'la ombor.

Tinim bilmay ishlaydi, Kasbin dong'in taratgan.

Turli ko'chatlar ekib, Ajib bog' ham yaratgan.

Shu kuni Shahlo bilan uzoq gaplashdik. U o'zining intiluvchanligi bilan bizda yaxshi taassurot qoldirdi. Bilimga chanqoqligi, ukalariga mehribonligi, ona shahri, go'zal vatanini yaxshi ko'rishini dildan anglab turar ekanmiz, orzularing amalga oshsin. ezguliklar hamrohing... dedik va shoira bo'lishida oq yo'l tiladik. Chunki yozgan she'ri yomon emas-a? To'g'rimi, bolalar?

Nargiza JALILOVA suhbatlashdi.

ammo Toshkent undan ham go'zalroq ekan, -deydi sirdaryolik tengdoshingiz - Baxt shahridagi 14-maktabning 3-sinf o'quvchisi Shahlo Mutalova.

qanday to'garaklar yo'q-da...

-Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?

-Shohista ismli singlim, Sherbek degan ukam bor, ularni o'ynataman, qiziq-qiziq ertaklar o'qib beraman. Ammo ukalarim juda qiziq-da, bir bor eshitgan ertaklarini ikkinchi marta aytib bersam, eshitishmaydi. Lotin yozuvida chiqqan kitoblar menda kam... — xomush tortdi u. Yana oyimning yaqin ko'makchisiman.

„Zoyka“ laqabli buzoqcham bor, unga qarayman. Sayohat ismli dugonam bor. U bilan har xil o'yinlar o'ynaymiz.

-Tug'ilgan kuningizga qanday sovg'a olishni xohlaringiz?

-Ertak kitoblari sovg'a qilishlarini

tushgansiz?

-Maktabda o'tkaziladigan kecha va tadbirlarda sahnaga ko'p chiqardim. Lekin katta sahnaga - „Turkiston“ saroyining yozgi binosi sahnasiga ilk bor „Kutaman“ qo'shig'im bilan chiqqanimda, rosa hayajonlanganman. Keyin-keyin ancha o'zimni tutib oldim. Yozda ko'hna Buxoroga qilgan ilk gastrolimdan ancha narsalar oldim. Ustozlarimdan sahna madaniyat sirlarini o'rganyapman. Qo'shiqlarim hali unchalik ko'p emas.

„Onajon“, „Xorazmcha“ „Atirgulim“, „Bulbuljon“ „Akajonim“, Dilfuza opa Rahimova va Shuhrat aka Qayumovlar bilan birgalikda „Vatan-trio“ qo'shiqlarini yaratganmiz. Yana yangi qo'shiqlar ustida ishlayapmiz.

-Diyorbek, qanday fazilatli insonlarni qadrlaysiz?

-O'yijonimdek xushmuomala, sin rahbarimiz Matluba opadek doimo kulib turadigan, direktorimiz Zubayda opadek to'g'ri so'z insonlarni qadrlayman.

-Tengdoshlaringiz muxlislarimga tilaklaringiz qanday?

-Yangi asrda barcha tengdoshlarim sog'-salomat bo'lishlarini, darslardar qochish, past baholarga o'qish kab yomon illatlarni eski yil, eski asrda qoldirib ketishlarini istayman.

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilfuza Usmonova, hamda adminstrator Nodirjon Hakimovlarning, Diyorjon og'ir, vazmin, kamtarin bola, degar ta'riflariga qo'shilgan holda shogirdlariga bildirgan ezgu niyatlariga sherik bo'lib, „Orzularing hamisha hamrohing bo'lsin, Diyorjon!“ deya niyat bildirdik.

Dilbar SHARIPOVA suhbatlashdi.


O'lkamizni o'rganamiz

SAYOHATNING

GASHTI BO'LAKCHA

Maktabimizda „Yosh o'lkashunoslar“ to'garagi tashkil qilinganiga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Lekin shu qisqa fursatda tumanimizga oid talaygina ma'lumotlarni bilib oldik. To'garak rahbarimiz Jahongir aka Musayev boshchiligida maktabimiz joylashgan tumanni geografik jihatdan „tadqiq“ etdik. 5-6 kishilik guruhlarga bo'linib tumanimiz bo'ylab sayohatga chiqdik. Olgan ma'lumot va taassurotlarimizni yig'ilishlarimizda muhokama qilib bordik. Bir guruh a'zolari suv tarmoqlari, daryo, kanal va zovurlar bo'ylab yurib, geografik tafsilot berishsa, ikkinchi guruhga a'zo bo'lgan yosh o'lkashunoslar transport yo'llari haqida qiziqarli ma'lumotlar to'pladilar. Sayohatimiz davomida bilib olgan ma'lumotlarimizni maktabdoshlarimizga ham so'zlab berdik.

Mashhura QAHHOROVA, Saida JABBOROVA, Toshkent tumanidagi 2-maktab o'quvchilari.



MAKTABIM — FAXRIM

MENING

Men Ahmad Yassaviy nomli 32-maktabda o'qiyman. Nabibullo aka Xolmirzayev boshchilik qilayotgan maktabimiz kundan-kunga chiroy ochib bormoqda, zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. Maktabimiz tuman, hamda viloyat maktablari, o'rtasida o'tkazilgan tanlovda qatnashib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ayni kunlarda respublika miqyosida o'tkaziladigan „Yil maktabi“ ko'rik-tanlovida qatnashish uchun hozirlik ko'ryapmiz. Bu tanlovda ham g'oliblikni qo'lga kiritish uchun astoydil harakat qilamiz.

Men shunday bilim maskanida, mehribonu bilimdon ustozlarimiz qo'lida tahsil olayotganimdan faxrlanaman.

Sevara ODILOVA,

Namangan viloyati,

Yangiqo'rg'on tumani,

CHIZMACHILIK

SHART EMASMI?

Bolalar, bilaman, siz adabiyot va ingliz tillarini juda yaxshi ko'rasiz. Ammo, haftada bir yoki ikki marta bo'ladigan chizmachilik darsini unchalik yoqtirmaysizlar. Negaki, buning sababi ana shu darsdan tajribali o'qituvchining yetishmasligidir. Yana maqtayapti demangu, mening o'quvchilarim yil boshida sizlar kabi dangalroq edilar. Qancha izlanishlarim, bahslarim natijasida ular chizmachilik faniga juda ham qiziqib qoldilar. Hatto bu fanni dars jadvaliga ko'proq kiritishni talab ham etmoqdalar. Chunki, chizmachilik zeriktirmas, tushunvolsak biz uni, chizmalarni sirlarini ochib berar bir kuni - deb she'rlar bilan darslarni boshlaymiz. Bolalar chizmachilikka oid topishmoqlar bilan dars mazmunini boyitmoqdalar. Vatanimiz kundan-kunga go'zallashib chiroy ochmoqda. Qurilayotgan har bir loyiha albatta chizmachilik bilan amalga oshadi-da.

Chizmachilik fani bizga,

Ko'p narsani o'rgatar.

Chizma sirin bilganlarni

Jahonga u tanitar.

Xosiyatoy ISOMIDDINOVA,

Farg'ona viloyati,

Uchko'prik tumanidagi

6-maktab.

ДЕНГИЗЧИЛАР ҚУТҚАРИБ ҚОЛИНДИ

КУАЛА-ЛУМПУР. Малайзиялик балиқчилар очиқ денгизда чўкиб кетган савдо кемаси бортида бўлган бешта филиппинлик денгизчини қутқариб олдилар.

Кема ҳалокати бундан 10 кун аввал Малайзия ва Филиппин давлатларининг денгиз чегарасидаги Балабак номли жойда содир бўлган. Шу 10 кун мобайнида денгизчилар 2 гуруҳга бўлинган ҳолда, бир-бирларидан беҳабар бўлиб, озиқ-овқатсиз бепоён денгизда жон сақлаганлар.

Қутқарилган денгизчиларнинг таъкидлашича, уларнинг ёғоч ортилган кемаси кучли бўронда қолиб кетган. Натижада кемадаги насос ишдан чиқиб, кема сувга фарқ бўла бошлаган. Кемада жами 10 киши бўлган. Кеманинг чўкиши пайтида экипаж 2 гуруҳга - 5та, 5та кишидан бўлинганлар. 5 киши захирадаги шлюпкага ва яна беш киши ҳаво тўлдирилган балонли қайиқчага чиқиб олганлар. Бир неча соатдан сўнг тўлқинлар икки қайиқни бошқа-бошқа томонларга оқизиб кетди.

Ҳозиргача денгизчиларнинг ярми, яъни 5 киши қутқариб қолинди. Қутқариб қолинган 5 киши қолган 5та сафдошларининг тақдири ҳақида ҳеч нарсани билмайдилар. Денгизчилар ҳалокат пайтида фақатгина ичимлик сувинигина олишга муваффақ бўлганлар.

Малайзия денгиз полицияси бедарак йўқолган 5 денгизчини қидирмоқда.

САМОРАДА АВТОБУС ҲАЛОКАТИ

МАДРИД. Испаниянинг Самора шаҳри яқинидаги шоссе бўйлаб кетаётган йўловчи автобуси ҳалокатга учради. Бунинг натижасида 2 киши қурбон бўлди, 22 киши жароҳатланди, улардан 8 нафарининг аҳволи оғир.

Ҳалокатга сабаб эса қуйидагича: автобус ҳайдовчиси юқори тезликда кела туриб, бирданига бурилган. Полициянинг фикрига кўра, автобус ҳалокати вақтида эсаётган кучли шамол ва ёғаётган ёмғир ҳам фожиага сабаб бўлган. Оқибатда автобус ағдарилиб кетган.

ИЛОН ЙИЛИДА ИЛОН ОВИ АВЖ ОЛМОҚДА

Шу кунларда Хитойдаги фермерлар ва деҳқонлар ҳосилларининг нобуд бўлаётганлиги сабабли ҳукуматга шикоят қилмоқдалар. Бунга сабаб эса, ферма ва далаларда сичқон, чигиртка, суварак, заҳарли курт-қумурсқалар, қўнғизлар каби зараркунандаларнинг бирданига кўпайиб кетганидир. Ушбу зараркунандаларнинг кўпайиб кетишига мамлакатда илонларнинг камайиб кетиши сабаб бўлмоқда. Маълумки, ушбу янги йил шарқ календари бўйича Хитойда илон йилидир. Шу сабабли ҳозирда хитойликлар илонларни кўп миқдорда овлаб, асосан дастурхон безаги, яъни, мазали таом сифатида истеъмол қилмоқдалар. Уларнинг фикрича, илон ейиш инсонни соғлом ва бахтли қилармиш.

Синхуа агентлигининг хабарига кўра, Хитойдаги 200 хил турдаги илонлар бутунлай йўқолиб кетиш арафасида. Чунки, Хитойда илонларни истеъмол қилишдан ташқари, уларнинг гўшлари ва заҳарларидан тиббиёт соҳасида ҳамда хитойликлар учун сеvimли бўлган илон виносини тайёрлаш учун ҳам кенг фойдаланадилар.

ЖАЗОИРДАГИ КАЛЛАКЕСАРЛАРНИНГ ВАҲШИЙЛИГИ

Жазoirнинг Шелифф вилоятида бир нечта қуролланган жиноятчилар асосан аёл ва ёш болалардан иборат бўлган 25 кишини ваҳшийларча, бирон сабабсиз ўлдириб кетдилар. Ўлдирилганларнинг кўпчилиги томоқлари чуқур кесилган ҳолда топилган. Маҳаллий аҳолининг айтишича, бу қотиллик ўзларини "Қуролланган ислом ташкилоти" деб атовчи бир гуруҳ жиноятчилар томонидан содир этилган.

Ўтган 2000 йили Жазoirда бу каби тинч аҳолини ваҳшийларча ўлдириш ҳолати деярли бўлмаган эди. Мамлакат президенти Бутефлика яқинда амнистия ҳақида қарор қабул қилган эди. Афтидан бу фармон ўзининг салбий оқибатларини кўрсатмоқда.

Шунингдек, ҳозирда Жазoir президенти ва мамлакатдаги бир қанча обрўли, қудратга, нуфузга эга армия генераллари ўртасида қарама-қарши муносабат вужудга келган.



МАНСАБДОР ШАХС РЕКОРД ЎРНАТДИ

Грузияда давлатнинг юқори лавозимларидан бирини эгаллаб турган Генри Купрашвили исмли шахс янги рекорд ўрнатиб, ўз номини Гиннеснинг рекордлар китобига киритди. У қўллари ва оёқларини маҳкам боғлатган ҳолда, чуқур бўлган бассейнда у бошидан бу бошига 40 мартадан, яъни, 2 километр масофани эсон-омон сузиб ўтди. Генрининг бу жаҳон рекордини ўрнатишига бир ярим соат вақт керак бўлди. Унинг фикрича, у сузишда қўллаган усул қадимги Грузияда дельфин усули деб аталган.

УКРАИНА КЕМАСИНИНГ АЯНЧЛИ ҚИСМАТИ

Истанбулдан Евпаторияга сузиб кетаётган Украинаниннг "Меркурий Хотираси" номли юк ташувчи кемаси Қора денгиз соҳиллари яқинида ҳалокатга учраб, чўкиб кетди. Натижада 8 киши ҳалок бўлган ва 15 киши бедарак йўқолган. Соҳил қўриқчилари 29 кишини қутқариб олишга муваффақ бўлдилар.

Ушбу юк ташувчи кема Украинадаги йирик хусусий компанияга қарашли эди.

ҲИНДИСТОНДА КУЧЛИ ЗИЛЗИЛА СОДИР БУЛДИ

26 январь - жума, 28 январь - якшанба ва 29 январь - душанба кунлари Ҳиндистонда кетма-кет кучли зилзилалар содир бўлди. Зилзила кучи Рихтер шкаласи бўйича Гужарат штатида 8 баллни, бошқа ҳудудларда 5,9 баллни ташкил этди. Зилзиланиннг асосий маркази Аҳмадобод шаҳри бўлган. Мамлакатда вайроналар остида қолиб кетган одамларни қутқариш ишлари давом этмоқда. Қутқарув ишларида Германия, Швейцария, АҚШ, Россия, Англия, Германиядан келган мутахассислар иштирок этмоқдалар. Ҳиндистон маъмуриятидан ҳозиргача олинган маълумотга кўра, Ҳиндистоннинг турли ҳудудларида содир бўлган бир нечта зилзилалар оқибатида 30 мингдан ортиқ киши қурбон бўлган, 10 минглаб одамлар вайрона остида қолиб кетганлар ва бедарак йўқолганлар. Вайроналар остида қолиб кетган одамлар ўз вақтида қутқариб қолинмаса, қурбонларнинг сони 50 минг кишидан ошиб кетиши мутахассислар томонидан айтилмоқда. Ҳиндистон ҳукумати Бутунжаҳон банки ва бир қатор бошқа халқаро молиявий ташкилотларга мурожаат қилиб, ёрдам сифатида 1 млрд АҚШ доллари миқдорида кредит ажратишни илтимос қилди. Бу маблағ зилзиладан зарар кўрган ҳудудларни ва вайрон бўлган биноларни қайта тиклашга, зилзила натижасида бошпанасиз, озиқ-овқатсиз, ногирон бўлиб қолган фуқароларга ёрдам тариқасида сарфланиши кўзда тутилган. Ушбу зилзила охириги 50 йил ичида Ҳиндистонда содир бўлган энг кучли зилзиладир.

КУБАГА ҚАРШИ САНКЦИЯЛАР

АҚШнинг янги сайланган вице-президенти Ричард Чейнининг таъкидлашича, Кубага нисбатан АҚШ томонидан олиб борилган иқтисодий блокада ва қўлланган санкциялар то Фидел Кастро истеъфога чиқмагунча яна давом этаверади.

Ричард Чейни Эн-Би-Си телекомпанияси орқали эфирга чиқиб шуни ҳам айтдики, агар Фидел Кастро ҳокимиятдан кетса, АҚШ Кубага нисбатан қўлланаётган иқтисодий санкцияларни бекор қилиб, у билан муносабатларини яхшилашга тайёр.

Шоҳруҳ КАРИМБЕКОВ тайёрлади.

Шанба, 3-февраль куни Ўзбекистон телевидениесининг 1-дастурида "Мўъжизалар майдончаси" кўрсатувчи бормоқда. Эртақлар бағрида яширинган сирли сўзларни топиш учун машаққат билан барабанны айлантirmoқдалар.

Ўйинда голибликка интилиш кучли бўлганидан марралардаги мукофотлар ҳам рад этилмоқда. Даврани ёшгина Дилшод Каттабеков машҳур Леонид Якубович каби савол-жавоблар, мутоибалар ва назокат билан олиб бормоқда. Бошловчи дастак олдида турган қизчага савол беради:

- Сиз Оҳангарондан экансиз, айтингчи, "Оҳангарон" сўзининг маъноси нима?

Қизча таҳминан шундай жавоб берди:

- Оҳангароннинг эски номи Хонобод бўлган, унинг ёнида шаршара бўлган. Шаршара оҳанг чиқаради, кейин шаҳарда темирчилар, хунармандлар бўлган... устахоналардан овоз чиққан... Оҳангарон "оҳанг" маъносини билдиради.

Бошловчи бу жавобга эътироз билдирмади, демак уни тўғри деб қабул қилди. Биргина бошловчи эмас, телевизор олдида ўйинни мароқ билан томоша қилиб ўтирганларнинг кўпчилиги шу жавобга, шу изоҳга ишонди...

қанча одам эшитган бўлса, (агар тўғриси билмаса) шунча одам янглиш фикрни тўғри деб қабул қилди.

Биз телевидение ва радиода давра суҳбатлари, танловлар ўтказилаётганда бундай ҳолатга кўп дуч келамиз. Ҳатто жавобларнинг хатолиги ва унинг тўғри жавоби бошловчилар томонидан изоҳланмайди. Аслида изоҳланиши керак. Бунинг учун бошловчилар мавзуни яхши билиши ва умуман кенг билимдон бўлишлари лозим.

Юқоридаги савол-жавобга келсак, "Оҳангарон" - форсча-тожикча "темирчилар шаҳри, темирчилар макони" маъносини беради. Бу номнинг пайдо бўлиши

IX-X асрда ҳозирги Оҳангарон дарёси воҳасида мавжуд бўлган. Илоқ давлати (унинг пойтахти Тункат шаҳри бўлган) билан боғлиқ. Бу давлатда Жанубий Чатқол ва Қорамозор тоғларидан олтин, феруза, кумуш, мис, қўрғошин қазиб олинган. Бу конлар тарихда "Илоқ конлари" номи билан машҳур. Конлар XI асрдан, Қорахонийлар давлати давридан унутилган. Орадан деярли 9 аср ўтганидан кейин XX асрнинг иккинчи ярмида қайта ишга туширилди ва Оҳангарон-Олмалиқ sanoat ҳудуди ва шаҳарлар пайдо бўлди. Демак, жавоб берувчи "Оҳангарон" сўзини изоҳлаш учун тариздан хабардор бўлиши лозим эди.

Бошловчимиз ҳали ёш (бошловчи атрофида кўрсатувга масъул бўлганлар бор, албатта). Мен унинг "Мўъжизалар майдончаси" билимдон бошловчи бўлишига ишонаман.

Бу луқмани ёзишдан мақсад телевидение, радио, матбуотда бериладиган ҳар бир ахборот, айтиладиган сўз илмий ҳақиқатга мос бўлса, маърифат одимларига мадад бўлишини айтмоқчиман.

Султон ХОЛНАЗАРОВ,
"Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти иқтисодийёт бўлими мудири,
Ўзбекистон республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими.



ANDIJONDA BIR MASKAN BOR...

O'zbekistonimiz - kelajagi buyuk davlat! Unga munosib farzand bo'lishimiz uchun biz yoshlardan ham har tomonlama yetuklik talab qilinmoqda. Shu bois ham bilimga, ta'lim muassasalariga bo'lgan talab kundan-kunga ortib boryapti, respublikamizda juda ko'plab litseylar, kollej, gimnaziyalar, kasb-hunar bilim yurtlari tashkil qilinyapti. Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi ingliz tili va matematika fanlariga ixtisoslashgan gimnaziya ham ana shunday masanlardan biri. Gimnaziya rahbarlik qilib kelayotgan **Eno opa Bakirova** bilim maskani haqida quyidagilarni gapirib berdilar:

-Gimnaziyamiz o'z faoliyatini boshlaganiga besh yil bo'ldi. Dastlab gimnaziyamizda 5 ta sinf bo'lib, 100 nafar o'quvchi tanlov asosida qabul qilingan bo'lsa, hozirgi kunda sinflar soni ancha kengaytirilib, 290 nafar o'g'il-qiz tahsil olyapti. O'quvchilarimiz juda intiluvchan, bilimga chanqoq yoshlar bo'lishgani uchun ham, ularga tajribali, malakali ustozlar bilim berishlari lozim. Shu maqsadda gimnaziyamizga o'qituvchilar ham tanlov asosida qabul qilinib, ularning bilimlari har yili sinovdan o'tkazib turiladi.

O'quvchilarimizning dam olishlari uchun ham shart-sharoitlar yaratilgan. Quyi sinf o'quvchilari tarbiyachilar nazoratida bo'lishadi, turli qiziqarli o'yinlar o'ynashadi. YUqori sinf o'quvchilari esa darslardan bo'sh vaqtlarini Mahfirat Qurbonova, Oyjamol Qodirova, Abdumajit Haytboyev, Baxtixon Usmonova, Aqlbek Sheraliyev singari muallimlar boshqarib kelayotgan „Yosh fizik“, „Yosh rassom“, „Yosh texnik“, ingliz tili, adabiyot kabi to'garaklarda

o'tkazishadi. O'quvchilarimizdan Maktuba Mo'minova, Akmal To'raxonovlar ingliz tilidan, Feruza Jo'rayeva, Yulduz Hurmamatova va Nodirbek Qodirovlar matematika fanidan tuman olimpiadalarida qatnashib, viloyat bosqichiga chiqishdi. Ota-onalarimiz ham juda faol, oralarida tashabbuskor, tashkilotchilari ham talaygina.

Tadbir va tantanalar o'tkazish, darslik va badiiy adabiyotlar sotib olish ishlarida gimnaziyamizga doimiy homiylik qilib kelayotgan Rasuljon Ortiqov, Murodjon Mahmudov, Fofurjon Obidov, Qobiljon Jalolov, Jabarali Haydarov singari serhimmat ota-onalarimizga jamoamiz nomidan minnatdorchilik bildiram.

Kelayotgan yil biz uchun ham, o'quvchilarimiz uchun ham hayajonli yil bo'ladi: ilk bitiruvchilarimiz

„qaldirg'och“larimizni mustaqil hayotga uchrir qilamiz. Xuddi o'z farzandlarimizdek mehrimiz tushib qolgan bitiruvchilarimizning kelgusida o'zlari orzulagan o'quv yurtlariga kirib o'qishlarida omadlar tilab qolamiz.

„Katta arava qayerga yo'l boshlasa, kichiklari ham ortidan ergashadi“ deyishadi. Gimnaziyamizning barcha o'quvchilari ham bitiruvchilarimizdek ilmi, bilimli o'g'il-qizlar bo'lishlariga ishonchim komil.

*Munajat MO'MINOVA
suhbatlashdi.
O'z MUning jurnalistika
fakulteti talabasi.*

Ha, ana shunday hayrli nom bilan, yaxshi niyatda o'z faoliyatini boshlagan O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zali tasarrufidagi korxonalaridan biri xalqaro „ART - HAMROH“ utilitar korxonasi haqiqatdan ham rassomlarning haqiqiy hamrohiga aylanish niyatida.

YAqindagina tashkil etilgan, bu korxonaning o'z faoliyatidan asosiy maqsadi Mustaqil Respublikamiz milliy san'ati va madaniyatini rivojlanishida ijodkorlarga yaqindan yordam berish. Milliy tasviriy va amaliy san'atimizni avvalo o'z mamlakatimizda, so'ngra Jahon san'atining bir bo'lgi sifatida, butun dunyoda tanilishida o'z hissasini qo'shishdan iborat.

Buning uchun korxonada xodimlari har bir rassom, usta ularning ustaxonalari, muzey, galereyalar bilan hamkorlikda bo'ladilar. Ayni paytda chet ellarda rassomlar asarlari ko'rgazmalarini o'tkazishini ta'minlash uchun chet el galereyalari, muzeylari, shaxsiy kolleksionerlari bilan hamkorlik qilish ishlarini amalga oshiradilar, marketing xizmatini yo'lga qo'yib ijodkorlar asarlari sotilishi bozorlarini shakllantiradilar.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun xalqaro „ART - HAMROH“ korxonasi o'zining keng ko'lamdagi faoliyat rejasini ishlab chiqdi. Rejaga asosan eng avvalo ishini kompyuterlarni internetga ulashdan boshladilar. Bu bilan Jahonda san'at va madaniyat sohasida bo'layotgan

yangiliklardan xabardor bo'libgina qolmay, barcha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib, o'z navbatida o'zbek rassomlarining ijodiy yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni uzatishni yo'lga qo'yidilar. Bunday ma'lumotlar bilan har bir rassom ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

"ART-HAMROH" - RAQQOMNAPXAMPOXI

„ART - HAMROH“ korxonasi tomonidan yana har bir rassomning ijodiy faoliyati va ko'rgazmalari haqidagi ma'lumotlarni SD - disklariga ko'chirilishi yo'lga qo'yildi. Birinchilardan bo'lib taniqli rassom Medat Kagarovning faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazma diskleri tayyorlandi.

Xalqaro „ART - HAMROH“, korxonasi tasviriy va xalq amaliy san'atini rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bora-sida tuzgan rejalarda yana bir masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Bu barcha san'atsevar insonlarni O'zbekiston tasviriy va xalq amaliy san'atiga jalb qilishdir. Buning uchun nufuzli davlat tashkilotlari, korxonalari, banklari, chet el sarmoyalari bilan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar rahbarlari, chet el elchixonalari va barcha san'atsevar insonlar bilan hamkorlik o'rnatib, ularning homiyliklaridan

foydalaniladi.

Rejada yana Respublika Tashqi Iqtisodiy Aloqalar vazirligi bilan hamkorlik etilishi ko'zda tutilgan. Barchaga ma'lumki, iqtisodiy masalalar bo'yicha vazirlikdan xorijga delegatlar tez-tez borib turadilar. Endilikda shu delegatlar safiga rassomlardan ham vakillar kiritilishiga

erishishdir. To'g'ri, rassomlar hech qanday iqtisodiy masalalarni yechilishida ishtirok etmaydilar, lekin tadbir o'tkazilayotgan joylarda kichik ko'rgazma tashkil etib, milliy san'atimizni namoyish etishlari mumkin.

Korxonada yosh iqtidorli ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Ana shu kabi ko'pgina rejalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro „ART - HAMROH“ korxonasi 2001 yil-ning

YOMONLIKLAR BIZGA YOT

Oллоh odamzotga yer ulashayotganda bizga o'z jannatining bir bo'lagidan joy ato etgan ekan. Shuning uchun ham yurtimiz jannatmakondir! Uning bag'ri go'zal, tog'lari ko'rkam, osmoni musaffo. Yurtimiz mustaqillikka erishganiga 9 yil to'ldi. 9 yilni 90 yil g a taqqoslasak arziydi. Mustaqil bo'lganimizdan keyin yurtimizga havas qiluvchilar ko'paydi. Shu bilan birgalikda hasad qiluvchilar ham. Chunki „yaxshilik va yomonlik birgalashib keladi“, - deydi dono xalqimiz.

Havas qiluvchilar bizning ajdodlarimizga, qadimiy urf-odatlarimizga, buyuk bobokalonlarimizga, hozirgi kunlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga, eng asosiysi, O'zbekiston yoshlariga havas qiladi. Hasad qiluvchilar-chi?

Yurtimiz kelajagi buyukligiga, irodasiga, ishonchiga, Prezidentiga, yoshlariga, boylıklariga hasad ko'zi bilan qaraydi. Hasad qiluvchilar kimlar? Xotiramdan aslo chiqmaydi. 1999 yil 16 fevralda Prezidentimiz I.A.Karimovga nisbatan uyushtirilgan suiqasd va oqibatda ko'plab begunoh kishilarning qoni to'kilganligini, naqadar razolat, naqadar tubanlik!

Har bir inson zotiga Oллоh tomonidan tuhfa etilgan yashashdek ulug' baxtdan judo etishdek qabohat. Har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Bunday jinoyatga qo'l urish uchun kishi nihoyatda beshafqat, qalbida insoniylik o'rnini vahshiylik egallagan bo'lishi kerak. Ha,

terrorchilar mana shunday odamdirlar.

Ular inson degan nomga noloyiq, xalqning qarg'ishiga uchragan baxtsizlardir.

Oллоhga shukrki, o'ylagan maqsadlariga erisholmadilar va erisha olmaydilar ham. Sariosiyo va Uzun voqealari fikrim isbotidir.

Yarador ilon Sariosiyo tog'larini o'ziga makon qilib, o'sha yerda insonga hamla uchun yana bosh ko'tardi.


Afsuski, bu jangari terrorchilar bilmaydiki, uni bosh ko'targan joyida yanchib tashlashadi. Shunday ham bo'ldi. Terrorchilarni puxta operatsiyalar tufayli tor-mor etildi. O'liklari xor-zor bo'lib tog'da qolib ketdi. Afsuski, ularga qarshi kurashda yana qancha begunohlar qoni to'kildi. Yosh, navqiron akalarim juvonmarg ketdilar. Ularning ota-onalari, oila-a'zolarining chekkan ohu-nolalari hali tugamaydi. Ularning Vatan himoyasi uchun ko'rsatgan jasoratlarini biz yoshlar hech qachon unutmaymiz. Vatan uchun jonini fido qilgan bu ulug' insonlar biz uchun hamisha o'rnakdir.

Qani endi, yer yuzida yovuzlik batamom tugatilsa, jaholat ildizi bilan sug'urib tashlansa! Unda terrorchi, jangari degan sovuq atamalarga ham o'rin qolmasdi. Men ishonamanki, yangi XXI asrda insoniyat faqat va faqat yaxshilik sari qadam tashlaydi, yovuzlik urug'i quriydi, biz singari yoshlarni esa orzu, intilish, harakat, mehnat va baxt kutadi.

*Dildora ESHMURODOVA,
7-"A" sinf o'quvchisi*

26 yanvar kuni o'zining birinchi va „XXI asr - O'zbek rangtasvir va xalq amaliy san'ati tiklanishi davri“ deb nomlangan tantanali qabul marosimini o'tkazdi. Qabul marosimida chet el elchixonalari elchilari, vakillari, davlatimizning nufuzli korxonalar tashkilotlari rahbarlari, jurnalistlar va ziyolilar qatnashdilar.

Marosimda xalqaro „ART - HAMROH“ korxonasi o'z faoliyati va oldiga qo'ygan maqsadlari haqida korxonada



tori A. Solixovning so'zlari tinglandi.

Marosim qatnashchilari o'z fikr mulohazalarini bildirdilar.

Badiiy Akademiyaning „Libos“ markaz dizaynlari tomonidan yaratilgan yangi liboslari namoyish etildi.

San'at ustalari o'z chiqishlari bilan qatnashchilarni xushnud etdilar.

Temur RO'ZIMATOV.

ЭРТАКЛАР НИМА?

Болалигида эртақ тингламаган, ундаги гайри-табиий ҳодисалардан завқланмаган киши бўлмаса керак. Шу боис саводимиз чиқиши биланоқ энг яқин ҳамроҳимиз, ҳамсуҳбатимиз эртақ китоблари бўлади.



Дарҳақиқат, эртақлар тингловчини ўзининг сирли, мўъжизаларга бой оламига етаклайди, ҳайратга солади.

Эртақлар халқ оғзаки ижодининг энг қадимий ва омавий, шу билан

бирга, бутун дунёдаги деярли барча халқларда учрайдиган севимли жанридир.

Эртақларнинг пайдо бўлишида қадимий урф-одатлар, маросимлар ва мифлар ҳал қилувчи ўрин тутган.

Эртақлар воқеликни ҳаёлий ва ҳаётий уйдирмалар воситасида акс эттириш билан характерланади. Идеал қаҳрамоннинг гайри-табиий кучларга қарши чиқиши, девлар олиб қочиб кетган қизларни қутқариши, ўзга юрт маликаларига ошиқ бўлиши, бедаво дардларга дори топиш каби эртақларнинг мавзу доирасини белгилайди. Эртақнинг бош қаҳрамонлари тез вояга етадилар, “кун сайин, соат сайин” улғаядилар.

Эртақлар маълум бир маънода муайян бир даврдаги тарихий шароитни, ижтимоий ҳаётни кўрсатиб беради.

Кўпгина эртақларнинг асосий салимоғиз бий қаҳрамонларидан бири - ял кампир мисолида оладиган бўлсак, мазкур образ кейинчалик жодугар, мастон номлари билан эртақларда, дostonларда учрайди. Бу ҳолат эса инсониятнинг тараққиёт босқичлари ҳақида анча-мунча маълумот беради.

Л.Н.Толстой халқ эртақларининг илмий тарихий қиммати ҳақида гапириб: “Эртақлар халқнинг улуг маънавий маданияти, уни битта-битталаб тўлаймиз ҳамда улар орқали минг йиллик тарих кўз олдимизда гавдаланади”, - дейди.

Халқ эртақларида аэроплан, телевидение ихтиро қилинишидан неча асрлар аввал “Учар гилам”, “Ойнаи жаҳон” ва бошқа сеҳрли тилсимлар ҳақида ҳикоя қилинади.

Инсониятнинг ўша даврдаги аждодлари тасаввурда янги тарих даврига келиб, илм-фаннинг катта ютуғи сифатида ихтиро қилинган кашфиётларнинг жонланганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, эртақларнинг тараққиёт учун хизмати бордек.

Эртақларнинг, айниқса, тарбиявий-таълимий аҳамияти жуда катта ҳисобланади.

Эртақлар ёш авлодни хунарли, илм-маърифатли ва ақл-фаросатли бўлишга ундайди.

Яхшиликнинг ҳамиша ёвуз кучларни қийинчилик билан бўлсада энггиб ўтишини кўрсатиш асносида халқ эртақлари ёш авлодни эзгуликка чорлайди.

Эртақларда ватанпарварлик, меҳр-оқибат, тўғрилик, садоқат, вафо каби туйғулар инсониятнинг яхши хислатлари эканлиги ҳақидаги гоё сингдирилган.

Эртақларда ишёқмаслик, ялқовлик, дангасалик, очкўзлик, ҳасад каби ёмон сифат эгаларининг муқаррар фалокатга йўлиқиши тасвирланади. Ўзбек халқ эртаги бўлган “Зумрад ва Қиммат”даги Қиммат исмли қиз ўзининг ҳасадгўйлиги, дангаса ва ялқовлиги боис балога йўлиқади.

“Эртақ” атамаси Маҳмуд Қошғарийнинг “Девони лугатит турк” асарида “этуқ” шаклида учрайди. Фольклоршуносликда эртақ термини қабул қилинган бўлсада, Сурхондарё, Самарқанд, Фарғонада матал, Бухоро атрофидаги қишлоқларда ушук, Хоразмда варсақи, Тошкент шаҳри ҳамда унинг атрофида чўпчак деб ҳам аталади. Эртақлар минг йиллар маҳсули бўлиб, авлоддан авлодга ўтиб сайқал топиб келаётган бадиий ёдгорликларимиздир.

Эртақларнинг ниҳоятда жозибадор ва мукаммал бадиётга эга эканлиги кишиларга ўзгача завқ бағишлайди.

Феруза ЭГАМОВА,
ЎЗМУ журналистика факультети
2-курс талабаси.

АЛЛА-ЧИ?


Алла ўзбек халқ оғзаки ижод намунасида бири бўлиб, аждодларимиздан бизга мерос бўлиб қолган муқаддас кўшиқдир. Унинг матни содда, тили ширин, тушунарли бўлиши, шунингдек, шеърят талабларига тўла жавоб бериши лозим.

Оҳанги, яъни мусиқаси ҳам содда талаблар асосига қурилган алла гўдакнинг мурғак, митти қалбига мулоийм таъсир этиб, унга хуш кайфият бағишлайди.

*Хуллас, шоир тили билан айтганда:
Она заминда неки тирик тан,
Бўлмиш фарзандга хўн парвоналар.
Бағрингиз кенгу меҳрингиз гулшан,
Ва лекин, алла айтинг, оналар!*

Алла айтишни ҳар бир она билиши лозим. Шунинг учун алла айтишни талаб қилиш, даъват этиш, унинг матнларини тўплаш ва бир жилдга жамлаш ҳар бир кишининг қулоғига куйиш, бошқача қилиб айтганда бўлгуси оналарга ўргатиш учун қайғуриш лозим.

Бунинг учун мактабларда одобнома дарсларида алла айтиш сирларини ўргатиб бориш мақсадга мувофиқдир. Дарс кўргазмалари куруллар, яъни алла айтиш учун зарурий ашёлардан тўла фойдаланган ҳолда ўтилиши керак. Хонанинг бир бурчаги она хонаси каби жиҳозланган бўлиши мақсадга мувофиқ. Гилам, унинг устига кўрпачалар тўшалган, онанинг ўнг томонида бешик унинг жиҳозлари жой-жойида



бўлиши, гўдак ҳам бўй-бастига мос кўғирчоқ бўлиши керак. Муаллим аввало болани бешикка белаш қоидаларини ўргатади, сўнг қизларга машқ қилдиради. Шундан кейингина алла айтиш сирларини, матн танлаш санъатини тушунтиради. Дастлаб муаллима аллани оҳанг билан айтиб кўрсатади. Шу тарзда ўқувчилар алла айтиш кўникма ва малакаларини эгаллайдилар.

Аллалар кўпинча оналар томонидан тўқилади. Уларнинг энг яхшилари, бадиий жиҳатдан мукаммаллари бошқа оналар томонидан ёд олинади.

Алла матнлари мазмуни, ўғил болалар ва қиз болалар учун алоҳида-алоҳида бўлиши мумкин. “Тоҳир ва Зухра” фильмидаги Зухрага айтилган алла диққатга сазовордир.

*Булбулигўё аллаё, алла,
Кўзлари шаҳло аллаё, алла.*

Шеър содда, мазмунан тушунарли, нафис ва жангдордир. Қиз болалар руҳига мос алла.

Яна бир хил алла матнлари бўладики, уларда қофия йўқ. Лекин мазмунан яхши, умидбахш.

*Оқ уйимга ярашган,
Жоним болам, аллаё, алла.
Боғимнинг боғбони бўл,
Жоним болам, аллаё, алла.*

Ёки:
*Тол ёғочдан бешигинг
Тинч ухлагин болам, аллаё,
Бошингда парвонаман,
Бахтли болам, аллаё.*

Алла матни қофияланган бўлса, янада таъсирчанроқ бўлади, жангдорлик касб этади.

Хуллас, алла ўзбек тарбиячилигида алоҳида ўрин тутди. Алла айтиш болаларни миллий одоб-ахлоқ руҳида тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади.

Шаҳноза ЖҲРАЕВА,
2-курс талабаси.

СЎЗДА ҲИКМАТ БОР

Узоқ ўтмишда кишилар сўзнинг инсон руҳиятига кўрсатадиган таъсирини, бевосита аллақандай гайри табиий куч-қудрат таъсирини деб тушунганлар. Шунинг учун ҳам уларнинг тасаввурда сўзлар яхши ва ёмон каби турларга ажралган.

Инсонлар бир-бирига яхши сўзлар билан мурожаат қиладилар, шу билан биргаликда ораларида меҳр-муҳаббат пайдо бўлади. Яхши сўз инсонга кўтаринчилик бағишлайди.

Аммо яхшиликка умуман тескари бўлган ёмонлик ҳам, айрим инсонлар қалбида жойлашгандир.

Одамлар йиллар мобайнида меҳнат қилиб, ўзгаларга ёрдам бериб, яхшилик қилиб олқиш эшитадилар ва келгусида яна олқишга сазовор ишлар қилиш учун тиришадилар.

Олқиш туркий тилларда “мақташ, шарафлаш, яхши истаклар тилаш” каби маъноларни англатиб, шарафламоқ, юксакликка кўтармоқ, мақтамоқ маъноларини англатувчи қадимги туркий “ал” - феъли ўзагига қи - буйруқ майли ҳамда - (а)ш ҳаракат номи кўшимчаларининг қўшилишидан ясалган.

Олқиш кишиларга яхшилик тилаш, уларнинг руҳиятини тетиклаштиришга хизмат қилиб, турмушнинг деярли ҳар бир жабҳасида қўлланилса, қарғиш кишига фақат ёмонлик келтиради холос.

Қарғиш ўзбек фольклорининг мустақил жанри ҳисобланади. Қарғиш узоқ-узоқ йиллардан буён халқ оғзаки ижодида мунтазам ишлатилади.

Қарғиш атамаси ёмон маънони билдирувчи қадимги туркий “қир” феълига - га иккинчи шахс буйруқ майлининг ҳамда (- иш) ҳаракат номи кўшимчаларининг қўшилиши орқали ясалган.

Қарғиш билан сўкишни бир нарса деб тушунмаслигимиз лозим.

Агар қарғишда кишига бахтсизлик, ёмонлик тиланиш устунлик қилса, сўкишда киши шахсияти ҳақоратланади ва раво кўриладиган ёмонлик кескин ҳукм тарзида ифодаланади.

Ота-боболаримиз, қарғиш инсонга ҳақиқатан ҳам тегади, унинг охири яхши бўлмайди, шунинг учун қарғишнинг олдини олинг, ундан сақланинг, деб уқтириб келганлар.

Айримлар қарғишни бирор кишига йўллаш ва уни қайтариб олиш мумкин деб ҳисоблайдилар.

Фольклоршуносликда қарғиш айтувчи махсус маросимлар ҳам бўлган.

Кейинчалик, яъни ҳозирги кунларга келиб, сеҳр-жоду қудратига бўлган эътиқодларнинг кучсизланиши ва бутунлай йўқолиши қарғиш жанрининг маросим билан алоқадорлигининг нутилишига олиб келган. Шунинг учун ҳам ҳозир қарғишлар ҳеч қандай маросимларсиз қўлланилади. Деярли ҳар куни қулоғимизга чалиниши мумкин. Бизлар учун оддий нарсадек бўлиб қолган. Лекин қарғишни меъёридан ортиқ ишлатса, инсон руҳиятига жуда катта таъсир кўрсатади.

Кўпчилик қарғишни кўпроқ аёллар ишлатади деб ўйлайди. Афсуски, эркалар ичида ҳам қарғиш жуда кўп қўлланилади.

Хуллас, олқиш ва қарғиш ҳақида сўз борарар экан, хоҳлардимки, албатта, олқиш ҳар куни, ҳар доим ишлатилсин. Барча инсон олқишларга сазовор бўлиб юрсин.

Ота-боболаримиз айтганларидек қарғиш ҳақиқатдан ҳам инсонга уради. Бировни қарғаш, унга ёмонлик тилаш, оила тинчлигини бузиш энг ёмон иллатдир. Ҳеч бир зот қарғишга учрамасин. Тоқай, унинг ҳаёти қарғиш туфайли бадном бўлмасин.

Шаҳло МУТАЛОВА,
2-курс талабаси.



**Alisherbek naziri yo'q kishi erdi.
Turkiy til bila to she'r ayubturlar, hech
kim ancha ko'p va
xo'b aytqon emas.**

Zahiriddin Bobur

ALISHERNING BOLALIGI

Alisherning bolaligi qanday o'tganligi sizni ham qiziqtirsa kerak? Quyida shu haqda hikoya qilib bermoqchiman.

U 1441 yilning 9 fevralida Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Hirotga tug'ildi.

Zamondoshlari uning haqida ko'pincha "Nizomiddin Mir Alisher" deb yozadilar. "Nizomiddin" - din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalarga beriladigan sifat, "Mir" amir demakdir.

Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad Bahodirxon temuriylar saroyining amaldorlaridan, ishonchli

kibilaridan biri bo'lgan. Onasi esa amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Afsuski, shunday mo'tabar onaning ismi hozircha bizga ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Otasi tufayli olimu fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida mashhur shoir Qosim Anvarning bir she'rini yoddan aytib, ko'pchilikni hayratga soldi.

Bir yildan keyin esa uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi. Keyinchalik u yozadi: "Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila". Qadrlil bolalar, bu baytning ma'nosi shuki, kim senga mashaqqat chekib, haq va haqiqat yo'lida bir harf o'rgatgan bo'lsa, uning haqini yuz xazina in'om etish bilan ham ado eta olmaysan! Ko'rdingizmi, siz ham ustozlaringiz hurmatini joyiga qo'yasiz degan niyatdaman.

Shunday qilib, 1447 yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo'l onshadi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma"ning muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi.

Alisherlar xonadoni 1451 yilda Hirotga qaytadi. 1452 yilda Abulqosim Bobur Xuroson taxtiga o'tiradi, notinchliklar bosiladi. Uning otasi Sabzavorga hokim etib tayinlanadi. Alisher esa o'qishni davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni she'riyat, adabiyot olamiga olib kiradi. Bo'lajak shoir Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston" asarlarini, Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush tili") asarini so'ngsiz ishtiyoq bilan o'qidi. Natijada, butun boshli kitobni Alisher tamom yod oladi. Umrining so'nggida esa "Lison ut-tayr" nomi bilan kitob ham yozdi.

Bo'lajak shoirning sevib o'qigan shoirlari yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy edi:

"Kichik erkonimdin bo'lub qoshima, ulug' muddao soldingiz boshima", - deb yozadi Navoiy keyinroq o'zining mashhur "Xamsa"sida.

Alisherning otasi 1453 yilda vafot etdi. U Abul-qosim Bobur xizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadga yashadi. Ikki maktabdosh do'st - Husayn va Alisher yana



birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va ilm egallash davri bo'ldi. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, ya'ni 100 ming misra she'rni yoddan bilishini aytadi.

She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshida she'r yozgani ma'lum. Alisher o'zbekcha she'rlariga "Navoiy", forchasiga "Foniy" taxallusini qo'ydi. "Navo"ning bir ma'nosi - kuy, ohang, yana biri - bahra. Dard, g'amni

ham "navo" deganlar. "Foniy" esa o'tib ketuvchi, yo'q bo'luvchi, vaqtincha degani. Uning taxalluslari shu barcha ma'nolarni qamrab olgan.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, Navoiy 15 yoshlarida yozgan: "Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh, bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh" - deb boshlanuvchi g'azalini Mavloni Lutfiyga o'qib beradi. She'r nozik xayolga boy bo'lib, so'zlar ma'nodor, o'xshatishlarga to'la edi:

"Yor yuzini yopgach, ko'zimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganda yulduzlar paydo bo'lgani kabi".

She'rdan hayratga tushgan keksa shoir bunday deydi: "Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n - o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashtirdim va buni o'zimning katta yutug'im deb hisoblar edim".

MENING JANNATI BOBOM

Aziz bolalar! Xabaringiz bor, shu kunlarda mamlakatimizda turk dunyosi adabiyotining eng buyuk shoiri, ulug' bobomiz Alisher Navoiy tug'ilgan kunining 560 yilligi keng nishonlanmoqda. Shu bois, tahririyatimiz Navoiydek buyuk zotga avlod va voris bo'lgan Siz azizlarga atab, go'zal bir guldasta tuhfa qilishni lozim topdi. Marhamat, Navoiy gulshanidan saralab olgan guldastamizni qabul aylagaysiz!

Bu turkiy - o'zbek she'riyatiga juda katta iste'dod kirib kelayotganidan nishona edi!

ONA YURTING - OLTIN BESHIGING

Qadrlil o'quvchilar! Navoiydan bizga ulkan adabiy meros qoldi. Ijodkorning 45 ming misradan ziyod she'riy va 51.230 misradan iborat nasriy hamda ko'plab ilmiy asarlari xususida batafsil ma'lumot berib o'tish mushkul ish. Shu bois quyida sizlarga ulug' bobomizning ba'zi ibratli hikoyatlari haqida so'zlab beraman.

Shulardan biri uning "Saddi Iskandariy" dostonidan joy olgan "Baliqlar hikoyasi" - Sizni o'ylashga, hayotni qadrlashga, umringizni zoye o'tkazmaslikka undaydi.

Bu hikoyada baliqlar suv ichida yashab turgani holda, suvni orzu qiladilar. Ular suvning qadriga yetmaydilar. Baliqlar doimo suv haqida o'ylab, uni qidiradilar. Suvning rangi, mazasi qanday ekan? Baliqlardan biri "Falon zo'r girdobda qari bir nahang bo'lib, u dengizning ostida ham, ustida ham sayr qilib yurarmish. Ehtimol, o'sha nahang suvdan darak topgan va ko'p maxfiy sirlarni bilib olgandir" - deydi.

Shu xomxayol bilan baliqlar suv orzusida yo'lga tushadilar va kuchli girdobga yo'liqadilar. Shu payt daryo chayqalib, bahaybat nahang paydo bo'ladi. U og'zini katta ochib, baliqlarni damiga tortib, yutib yuboradi. Nahang qorniga kirgan baliqlar oldin suvda bo'lib, endi esa suvdan quruqlikka chiqqanliklarini tushunadilar. Pushaymonlik ohidan falakka tutun chiqaray desalar, nahang me'dasining o'ti bularni kuydira boshlaydi...

Baliqlarning keyingi pushaymoni esa foydasiz edi. Zero, dono xalqimiz "Ona yurtim - oltin beshigim", "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q", deb bejiz aytmagan. Bunga o'xshash holni odamlar orasida ham uchratish mumkin.

Zotan, ulug' bobomiz qissadan hissa chiqarib shunday deydi:

"Ey odam! Senda ham ko'pgina maxfiy xazina boru, ammo uni bilishga ta'bing nodonlik qiladi. U xazina senda bekinib yotibdi. Yo'q, sen unga ko'milib yotibsanu, ammo bilimsizlik senga zarar bermoqda... Har qanday befoyda pushaymonliklarga duchor bo'lmasingdan ilgari esingni yig'ib olda, o'z ulug'ligingni ko'r, ey odam!"

Shoirning baliqlar to'g'risidagi hikoyasi ona - Vatanini tashlab, yengil hayot kechirish havasiga muhtalo bo'luvchilarga ham ibrat sabog'i emasmi, navqiron do'stim?!

O'ZGA YURTDA SHOH BO'LGUNCHA...

"Xamsa"ning beshinchi dostoni "Saddi Iskandariy"dagi "Kabutar" hikoyati ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda aytilishicha, chaqqon bir xat tashuvchi kabutar bir shohning bandiga tushib, bir necha yillar qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qafasda bandilikda yashaydi.

Kunlardan bir kun tasodifan qafasdan qutulib, erkinlikka chiqadi va o'z yurtiga, o'z uyiga qarab yo'l oladi. Kelib qarasaki, uning uyi vayron etilgan ekan. Shunda kabutar vayrona bo'lsa ham shodlik bilan o'z uyiga, o'rgangan joyiga qo'nadi. Zero, qadrdon uy, o'rgangan joy vayrona bo'lsa-da, ammo begona yerdagi shoh qasridan afzal, degan

Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi xulosaga kelinadi.

Hikoyat o'zining mazmun va mohiyati, g'oyasi bilan "o'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l" maqoli bilan uyg'un. Demak, hikoyatda o'zga yurtlarda dabdaba surishdan, o'z yurtida nochor, ammo ozod yashashni, ona yurtning tuprog'i har bir



kishi uchun behad aziz ekanligi ta'kidlangan.

Musofirlikning og'ir, mashaqqatli ekanligini, ona yurtning azizligini shoir bolalik hamda yigitlikda Mashhad, Samarqandda tahsil olgan yillari chuqur anglab yetgan edi.

Navoiy uchun og'ir, ammo ibratomuz xulosalar bergan ana shu yillar kechmishi, uning butun umri va ijodi mobaynida chuqur iz qoldirgan.

Shu bois, musofirlik, bandilik, o'z yurtidagi erkinlik g'oyasi, uning nafaqat epik asarlari, balki she'riy asarlarida ham yorqin ifodalangan. Masalan, uning quyidagi mashhur ruboiysida ham ana shu g'oya juda mahorat bilan qog'ozga muhrlangan:

**Furbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.**

Ona yurtning bebaholigini, olijanob insoniy g'oyalarni, do'stlik va osoyishtalikni tarannum etuvchi buyuk shoirning asarlari, qadrlil o'quvchi, shuning uchun ham abadiy yashayveradi, deb baralla ayta olamiz.

QANOATDAN — FAROG'ATGA

"Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayratul - abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostonida "Qanoat qiluvchi juvonmard bilan tamagir" hikoyati keltirilgan. Jumladan, unda shunday hikoya qilinadi.

Fors o'lkasidan ikki o'rtoq Chin mamlakati tomon yo'l oldilar. Biri azaldan berilganiga qanoat qilardi. Ikkinchisi esa undan ortiqni tama qilardi. Yo'lda ularga oddiy tosh uchrab qoladi. Toshga bir gap o'yib yozilgan edi: "Kimki qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag'darsa, unda bir afsona yozilgan. O'sha afsonaga ko'ra, shu atrofda bir vayrona bor. Vayronaning tagida esa, ajoyib bir xazina bor..."

Tamagir buni o'qigach, besaranjom bo'lib, tomirlari qattiq ura boshladi. Xazina havasida, toshning tagini qazishga tushib ketdi. Qanoat qiluvchi esa shunday dedi: "Qanoat xazinasini mening hamrohimdir. Kimga tangri ehson bermoqchi bo'lsa, tosh o'z-o'zidan yorilib, uning ostidagi ehson o'z egasini topishi mumkin".

Qanoat sohibi yo'lga tushib, shaharning bir chetiga kelib qoldi. U darvozaga yaqinlashib borganida, har tomondan unga qarab odamlar chopib kela boshladilar. Chunki bu yer aholisining rasmi bo'yicha, podshoh vafot etgan bo'lsa, sahar vaqtida kim shaharga oldin kirsas, uni taxtga o'tqazib, boshiga toj kiydirib, qo'liga uzuk taqishar ekan. O'sha rasm bo'yicha, qanoatli kishini podshoh qilib ko'tardilar.

Boshiga mashaqqat yukini ortib olgan do'sti bo'lsa, boylik havasiga berilib, qiyinchilik bilan toshni boshqa tomonga aylantirdi. Unga yozilgan xatni o'qidi: "Kim xomtama bo'lsa, u odam dunyoda doim azobda".

Ko'rdingizmi aziz bolalar! Ikki do'stdan birini qanoat mamlakatga podshoh qildi. Ikkinchisini esa tamagirlik azobi xor-zor etdi. Umidvormanki, siz ham hayotda qanoatli, ma'rifatli, ma'naviyatli, sog'lom va komil insonlar bo'lib yetishasiz. Bu yo'lda Sizlarga ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlari hamfikir, hamdard, eng yaqin ko'makdosh bo'lg'ay!

Sahifani Gulyuz BAHODIR qizi tayyorladi

Бир бор экан...



Битта боғда биттагина бақа яшар экан. У барча бақалар каби беозор ва лекин химоясиз экан. Бечорани душманларидан ким ҳам химоя қилсин? Унинг бирдан-бир ёвуз душмани боғ четидаги тўнка тагида яшайдиган кичкинагина бир илон экан. Кичкина бўлгани билан бари бир душман душман-да. Бақа ундан кўрканидан шариллаб оқиб турадиган ариқчага тушмай, бир қавакда биқиниб яшар экан. Биқиниб ётавериб, кўпинча оч қолар экан.

Ўша боғда биттаю битта типратикан ҳам яшар экан. Аслида бақанинг жонига оро кирадиган ўша типратикан экану лекин у бу ерда илон борлигидан беҳабар экан. Бақа бўлса илоннинг инини билар экану лекин ундан ўч олишни билмас экан. Шундай қилиб бир-биридан хабардору беҳабар учта жонзотнинг ҳар бири ўзича кун кўриб яшайвериб-

ди. Бир куни қавакда ётган бақа бақириб нола қилибди:
- Эй Худо, илондан ўзинг кутқар! Эй Худо...
Шу вақтда типратикан бақа ётган қавакка яқинлашиб қолган экан. Бақанинг нолишини эшитиб, унга жон кирибди.
- Қани ўша илон? - дебди у.
- Менга кўрсат. Адабини

бор, - дебди у.
- Бўлмаса гап бундок, - дебди типратикан. - Сен тўнканинг яқинига бориб сайрайсан. Сайраганингни эшитган илон тўнка тагидан чиқадди. У ёғини ўзимга қўйиб беравер. Қани кетдикми?
- Кетдик, - дебди хурсанд бўлган бақа.
У сакраб-сакраб тўнка ёни-

Азиз АБДУРАЗЗОҚ

охири шалпайиб ўлиб қолибди. Кейин типратикан уни бир чеккадан еб битирибди.
Ўша кундан бошлаб бақа ҳам ашаддий душманидан қутилибди, ҳам типратикан билан дўстлашиб қолибди. Қойилмисиз? Қани энди ҳамма жойда ҳам типратиканлар билан бақалар дўст бўлса...

АЖОЙИБ ДЎСТАЛИК

бериб қўяман.
Унинг гапини эшитган бақа қавакдан чиқмай сўрабди:
- Илонни сенга кўрсатаман, - дебди у. - Лекин бир шартим бор.

- Қанақа шарт?
- Кейин сен менга зиён-захмат етказмайсанми?
- Йўқ, - дебди типратикан. - Агар илонни кўрсатсанг, уни ўлдириб ейман. Сен ундан абадий қутулсан. Ундан кейин икковимиз қиёматли дўст бўламиз.

Бақа унинг гапларига ишонибди. Қавакдан аста бошини чиқариб, боғнинг бурчагидаги тўнкани кўрсатибди.
- Ўша ерда илон

га борибди-да, вақа-вақ, вақа-вақ деб сайрай бошлабди.
Унинг сайрашини эшитган илон тўнка тагидан секин сирғалиб чиқа бошлабди. Бир чеккада яшириниб турган типратикан ўрмалаб бориб илоннинг думидан тишлаб, кейин ўзи ғужанак бўлиб, коптокка ўхшаб қолибди. Нима бўлганини тушунолмаб қолган илон жон-жаҳди билан ўзини уёқ-буёққа ураверибди. У кўпроқ типратиканга ўзини урибди. Борган сари типратиканнинг танасидаги тиканлари унга санчилиб, илон қоп-қора қонга беланибди. Уриниб-уриниб,



ҚИШ

Эзгу ниятларни,
Ширин орзуларни,
Туғиб дастурхонга
Қиш келди меҳмонга.

Куйлаб шўх куйин,
Музлатиб кўлин,
Барақа сочар,
Кенг очиб кўлин.

Светлана
ЙУЛДОШЕВА,
Юнусобод туманидаги
80-мактаб ўқитувчиси.

Худобанд

Болалар боғчасида тозалик ҳақида суҳбат бўлмоқда.

—Қани болалар, ким айтади, овқатланишдан аввал қўлларни нима учун ювамиз?

—Қошиқ ифлос бўлмаслиги учун!—деб бийрон жавоб берди болақай.

Анвар сен қаёққа? — сўради она ўғлидан.

—Кўчага.

—Шунақа исқирт юз билан-а?

—Йўқ, ўртоғим билан!

Анвар мактабдан келиб онасига деди:

—Бугун автобусда кетаётим бир аёлнинг оёғини босиб олдим ва ундан шу заҳоти кечирим сўрагандим, у менга конфет берди.

—Сен унга раҳмат айтишни унутмадингми?

—Йўқ. Мен унинг оёғини яна босдим.

Она ўелига ўргатмоқда:

—Анвар, пичоқни чап қўлда, вилкани эса ўнг қўлда ушлаш керак.

—Унда гўштни қайси қўлим билан оламан?!

Тўловчи: Саидақбар МАННОНОВ

Азиз ўқувчилар, билағону зукко болалар. Газетамиз саҳифаларида билимингизни синаш мақсадида атайин айрим хатолар ўтказиб юборилиши, тиниш белгилари тушириб қолдирилишидан хабарингиз бор. Зийрак ва топқир тенгдошларингиз "Билағон" саҳифамизга ўзлари топган хатоларни ёзиб юборишяпти. Наманганлик тенгдошингиз Севара Одилова ҳам билағонлардан чиқиб қолди. У кўп эмас, оз эмас ўтган сондан тўртта хато топиб жўнатибди. Сизлар ҳам диққат билан синчиклаб ўқинглар-а, балки ундан ҳам кўпроқ хато топарсизлар.

Биренгдошларингиз



ФЕРУЗ СИНГЛИМ

Хазон бўлдинг куз фаслида.
Юрсанг бўлар эди қувнаб
Орамизда сен аслида
Ширин-шакар сўзларингни,
Олмадайин юзларингни.
Соғинаман, Феруз синглим.
Худойимдан тилаб-тилаб,
Олганимиз ўзинг эдинг.
Уч йилгина меҳмон бўлиб,
Феруз синглим, қайга кетдинг?
Хур қизларга қўшилишиб,
Учиб кетдинг, кўчиб кетдинг.
Биз учун сен тирикдирсан,
Уриб турган юракдирсан,
Соғинаман, Феруз синглим!

Муниса НИШОНОВА,
21-мактабнинг 11-синф укувчиси.



ХОЛАЖОНИМ, ХОЛАЖОН!

Аямларнинг опаси.
Дардга шифо нафаси,
Меҳрибонсиз холажон,
Болажонсиз, болажон!
Ҳаммамизга ёқасиз,
Меҳр бўлиб оқасиз,
Яйраймиз кўрсак сизни,
Эркалайсиз-да бизни!
Кўрсангиз кўча қўйда,
Ё уйда ёки тўйда,
Улашиб туршак, жийда,
Меҳрибонсиз холажон,
Болажонсиз, болажон!
Қизу ўғил, невар
Этак тўла эвара,
Насиб бўлсин чевара
Меҳрибонсиз холажон,
Болажонсиз, болажон!

Камола ФАЗИЛИЕВА

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT QO'MITASI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 50100 nusxada ofset usulida bosildi.
Korxonalar manzili:
"Buyuk Turon" ko'chasi, 41.
Buyurtma - G-2193
Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi.
Navbatchi:
Feruz ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Tel: 144-62-34.